



<https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i05.146>

AQLIY FAOLLIKNI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SEMANTIK TAHLILI

Shamsiyeva Xolida Sharobiddin qizi

*SamDCHTI Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti, Ingliz tili o‘qitish
metodikasi kafedrası stajyor-o‘qituvchisi*

ORCID: 0009-0000-7060-0755

kholidashamsiyeva@gmail.com

+99893-722-18-93

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida aqliy faoliyatni ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari tadqiq etiladi. Izlanish davomida frazeologik birliklarning semantik tasnifi hamda ularning intellektual xususiyatlarni ifodalashdagi funksional vazifasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda qiyosiy, tavsifiy va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlillar natijasida ingliz va o‘zbek tillaridagi aqliy faoliyatga oid frazeologik birliklar umumiy semantik xususiyatlarga ega ekanligi, biroq ularning obrazli asoslari va madaniy assotsiatsiyalarida sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, aqliy faoliyat, semantika, kognitiv jarayon, frazeologik birlik, ingliz tili, o‘zbek tili, qiyosiy tilshunoslik.

Abstract: This article examines the semantic features of phraseological units expressing intellectual activity in the English and Uzbek languages. The research analyzes the semantic classification of phraseological units and their functional role in expressing intellectual characteristics. Comparative, descriptive, and semantic analysis methods were employed in the study. The results reveal that phraseological units related to intellectual activity in English and Uzbek share common semantic features; however, significant differences exist in their figurative bases and cultural associations.

Keywords: phraseology, intellectual activity, semantics, cognitive process, phraseological unit, English language, Uzbek language, comparative linguistics.

Аннотация: В данной статье исследуются семантические особенности фразеологических единиц, выражающих интеллектуальную деятельность в английском и узбекском языках. В ходе исследования анализируются семантическая классификация фразеологических единиц, а также их функциональная роль в

выражении интеллектуальных характеристик. В работе использованы сравнительный, описательный и семантический методы анализа. Результаты исследования показали, что фразеологические единицы, связанные с интеллектуальной деятельностью в английском и узбекском языках, обладают общими семантическими особенностями, однако в их образной основе и культурных ассоциациях наблюдаются существенные различия.

Ключевые слова: фразеология, интеллектуальная деятельность, семантика, когнитивный процесс, фразеологическая единица, английский язык, узбекский язык, сопоставительное языкознание.

Kirish

Frazeologiya zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda xalqning tarixiy tajribasi, milliy dunyoqarashi va madaniy tafakkuri til birliklari – frazalar va iboralar orqali ifodalanadi. Frazeologiyada aqliy faollik bilan bog‘liq frazeologik birliklar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular insonning fikrlash, anglash, tahlil qilish, eslab qolish va baholash qaror qabul qilish kabi intellektual xususiyatlarini ifodalaydi. Bunday birliklar nafaqat lug‘aviy ma‘noni, balki emotsional-ekspressiv hamda uslubiy ma‘nolarni ham o‘zida mujassamlashtiradi.

Ingliz va o‘zbek tillarida aqliy faoliyatni ifodalovchi frazeologik birliklar keng tarqalgan bo‘lib, ular badiiy adabiyotda, publitsistik uslubda va kundalik muloqotda faol qo‘llanadi. Masalan, ingliz tilidagi *to rack one’s brains, a smart cookie, to put two and two together* kabi frazeologik birliklar o‘zbek tilidagi *bosh qotirmoq, yetti o‘lchab bir kesmoq, bir o‘q bilan ikki quyonni urmoq, aqli raso* kabi iboralarga semantik jihatdan yaqin hisoblanadi. Ushbu birliklar ikki tilda intellektual jarayonlarni qanday obrazlar orqali tasavvur qilishini ochib beradi.

Mazkur frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili umumiy kognitiv mexanizmlar va milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Shu bois ularning semantik tabiatini o‘rganish tarjimashunoslik, kognitiv tilshunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi aqliy faollikni ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini tahlil qilish hamda ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o‘zbek tillarining frazeologik lug‘atlari, izohli lug‘atlar hamda badiiy manbalardan tanlab olingan frazeologik birliklardan foydalanildi. Tadqiqotda asosiy metod sifatida qiyosiy-semantik metoddan foydalanildi. Shuningdek,

tavsifiy va kontekstual tahlil metodlari yordamida frazeologik birliklarning ma‘nosi hamda nutqdagi funksional qo‘llanishi izohlandi.

Tahlil jarayonida aqliy faollikni ifodalovchi frazeologik birliklar quyidagi semantik guruhlarga bo‘lindi:

- intellekt va donolikni ifodalovchi frazeologik birliklar;
- aqliy sustlikni ifodalovchi birliklar;
- anglash va tushunishni ifodalovchi birliklar;
- aqliy zo‘riqish va tafakkur jarayonini ifodalovchi birliklar.

Har bir guruhning semantik va uslubiy xususiyatlari qiyosiylab o‘rganildi.

Natijalar va muhokama

Intellekt va donolikni ifodalovchi frazeologik birliklar

Har ikki tilda insonning aqliligi, donoligi va tez fikrlash qobiliyatini ifodalovchi ko‘plab frazeologik birliklar mavjud bo‘lib, ko‘pincha ijobiy intellektual xususiyatlar o‘tkirlik, yorqinlik yoki qimmatlilik obrazlari orqali ifodalanadi.

Masalan:

- *a smart cookie* — aqli va topqir inson;
- *a brain box* — juda aqli odam;
- *to have a sharp mind* — zehni o‘tkir bo‘lmoq;
- *aql koni* — nihoyatda dono inson.
- *Aqli raso-* dono
- *ustasi farang-* hamma ishda aqlini ishlatadigan inson
- *bilim xazinasi* — ko‘p bilimga ega inson,
- *es-hushi joyida* — fikrlashi normal, aqli odam,

Mazkur birliklar ijobiy baholash ma‘nosiga ega bo‘lib, yuqori intellektual salohiyatni tavsiflashda qo‘llanadi. Ingliz tilida predmetlarga oid metaforalar faol qo‘llansa, o‘zbek tilida *aql*, *zehn* kabi mavhum tushunchalarga asoslangan obrazlar ustunlik qiladi.

Aqliy sustlikni ifodalovchi frazeologik birliklar

Mazkur guruhga aqlsizlik, parishonxotirlik, esida turmaslik, esidan chiqib ketgan yoki umuman xotirasi yaxshi emasligini ifodalovchi birliklar kiradi.

Masalan:

- *birdbrain* — miyasiz odam;
- *scatterbrain* — parishonxotir inson;
- *not the sharpest tool in the shed* — aqli kalta;
- *kallasi bo‘sh* — aqli sust odam *esi past*, *esi ketgan-* fikrlash qobiliyati normal emas,

tentak, ovsar. Masalan: *Yigit boyagi kampirning jiyani bo‘lib, tug‘ma esi past, xolasining uyiga yaqinda kelgan ekan.* A.Qahhor. Sinchalak.

Bunday birliklar ko‘pincha kinoya, istehzo va salbiy emotsional bo‘yoqdorlikka ega bo‘ladi. Ingliz tilida yumoristik metaforalar ko‘proq uchrasa, o‘zbek tilida emotsional-ekspressivlik kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Anglash va tushunishni ifodalovchi frazeologik birliklar

Aqliy faoliyatning muhim jihatlaridan biri bo‘lgan tushunish va anglash jarayonlari ham frazeologik birliklar orqali ifodalanadi.

Masalan:

- *to put two and two together* — gapning tagiga yetmoq;
- *a light bulb moment* — birdan anglab yetish holati;
- *to catch on quickly* — tez fahmlamoq;
- *bir aytganda uqib olmoq* — darhol tushunmoq.
- *bir ko‘zi o‘qda bo‘lsa, bir ko‘zi go‘ngda* -hushyor turish, sergak holda, ziyraklik bilan,

juda ehtiyotkorlik bilan ish qilish,

• *yer ostida ilon qimirlasa bilmoq*- nihoyatda ziyrak, sezgir, *yetti o‘lchab, bir kesmoq* - nihoyatda ehtiyotkorlik (tadbir) bilan ish ko‘rmoq- *Qizcham, shoshma, shoshgan kishidan aql qochadi, yetti o‘lcha, bir kes*. Oybek. Quyosh qoraymas.

Semantik tahlil shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda anglash jarayoni yashirin ma‘noni topish yoki fikriy ravshanlikka erishish tarzida konseptuallashtiriladi.

Aqliy zo‘riqishni ifodalovchi frazeologik birliklar

Ba‘zi frazeologik birliklar kuchli fikrlash, diqqatni jamlash yoki intellektual zo‘riqishni ifodalaydi.

Masalan:

- *to rack one’s brains* — bosh qotirmoq;
- *to think hard* — qattiq o‘ylamoq;
- *kallasi qotib qolmoq* — fikriy charchoq holatiga tushmoq.
- *Bosh qotirmoq- ma‘lum bir vaziyatda chuqur o‘ylamoq*
- *O‘yga tolmoq, o‘yga cho‘mmoq- uzoq fikrlamoq*
- *o‘z gaz(i) bilan o‘lchamoq? anglash-bilish qobiliyati darajasida baho bermoq,*

mulohaza yuritmoq.

Mazkur birliklarda tafakkur jarayoni bosim, harakat yoki jismoniy zo‘riqish bilan bog‘liq metaforalar orqali ifodalanadi.

Umuman olganda, qiyosiy tahlil aqliy faoliyatga oid frazeologik birliklarda universal semantik xususiyatlar bilan bir qatorda milliy-madaniy o‘ziga xosliklar ham mavjudligini ko‘rsatdi.

Xulosa

Aqliy faoliyatni ifodalovchi frazeologik birliklar ingliz va o‘zbek tillari frazeologikbirliklarning muhim qismini tashkil etadi. Ular insonning intellekti, tafakkuri,

anglash qobiliyati va ruhiy holatini obrazli, ta’sirchan tarzda ifodalovchi muhim til birliklari hisoblanadi. Qiyosiy-semantik tahlil natijalari har ikki tilda aqliy faoliyatga oid ko‘plab metaforik frazeologik birliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik tizimlar obrazlilik, uslubiy bo‘yoqdorlik va leksik qurilish jihatidan farqlanadi. Ingliz tilida bilvosita metaforik obrazlar ustunlik qilsa, o‘zbek tilida milliy-madaniy va emotsional-ekspressiv xususiyatlar kuchliroq namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning xalq mentaliteti va intellekt haqidagi madaniy qarashlar bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi. Shu sababli mazkur birliklarni o‘rganish zamonaviy tilshunoslik, kognitiv semantika va tarjimashunoslik uchun dolzarb ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A Course in Modern English Lexicology — Kunin A. V. *A Course in Modern English Lexicology*. Moscow: Higher School Publishing, 1972.
2. English Idioms — Kunin A. V. *English Idioms*. Moscow, 1984.
3. Fundamentals of English Phraseology — Amosova N. N. *Fundamentals of English Phraseology*. Leningrad University Press, 1963.
4. Rahmatullayev Sh. *O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati*. Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
5. Фразеология современного русского языка — Vinogradov V. V. *Phraseology of the Modern Russian Language*. Moscow, 1977.
6. Shamsiyeva X.Sh. “Ingliz va o‘zbek tillarida inson intellektual qobiliyatini ifodalovchi iboralarning ahamiyati” Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 3-son-1925